QASHQADARYO VILOYATI
NISHON TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

181100 Nishontumani, Yangi Nishon shahri O'zbekistonko'chasi 20-uy Faks: (+998) 755-121-100 t.nishon@exat.uz

2022 - yil 15 - iyul 616-4-65-Q/22 Nishon tuman hokimligi

Nishon tumanida dam olish kuni yarmarkalarini tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-son qarori *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 35-son, 403-modda)* bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari”ga muvofiq tuman hududida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bevosita qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotishlariga shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda)* 6-moddasiga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Nishon tumanidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini bevosita qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida dam olish kuni yarmarkalarini (*keyingi o‘rinlarda* ***Yarmarka*** *deb ataladi)* tashkil etish haqidagi taqdimnomalarini inobatga olib, “Nishon dehqon (oziq-ovqat) bozori” mas’uliyati cheklangan jamiyati hududida har shanba va yakshanba kunlari soat 07:00 dan 17:00 gacha dam olish kuni yarmarkalari tashkil etilishi belgilansin.

2.Yarmarkada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishi;

yarmarkalar hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishi;

yarmarkalar uchun ajratilgan savdo o‘rinlarining toza va tartibli saqlanishiga sotuvchilar mas’ul ekanligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3.Yarmarkada mahsulotlarni sotish quyidagi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin:

tovarga oid hujjatlar (tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan berilgan sotilayotgan mahsulot jismoniy shaxs tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shakldagi hujjat (ma’lumotnoma));

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

4.“Nishon dehqon (oziq-ovqat) bozori” mas’uliyati cheklangan jamiyatining ma’muriyati:

yarmarkalarni tashkil etish uchun bozorning aholi uchun qulay bo‘lgan qismidan, bozorning umumiy savdo maydonini 5 foizidan kam bo‘lmagan maxsus joylar ajratilishini;

yarmarkalar uchun ajratilgan hududdan savdo o‘rinlarining bepul berilishini;

yarmarkalar o‘tkazilishini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishni ta’minlasin va bozorning kirish joylariga e’lonlar joylashtirishni tashkil etilishini inobatga olsin.

5.Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (U.Butayorov) har shanba va yakshanba kunlari yarmarkalarni tashkil etish uchun joy ajratilganligi va o‘tkazilayotganligini, yarmarkalar o‘tkazilayotgan hududda savdo o‘rinlarining bepul berilishini hamda yarmarkalarda tovarga oid hujjatlar mavjudligini doimiy nazorat qilsin.

6.Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati Nishon tuman bo‘limi (A.Normuminov) yarmarkalarda sotilayotgan mahsulotlarning turlariga qarab joylashtirilishi va ular sifatining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga to‘g‘ri kelishini doimiy nazoratga olsin.

7.Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Iskandarov) bozor hududida yarmarkalar o‘tkaziladigan kunda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

8.Nishon tuman hokimining 2021 yil 27 fevraldagi HQ-464/02-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotdan deb hisoblansin.

9.Mazkur qaror “Nishon tongi” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning “nishonpress.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Boboqulov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.K.Xayitmuradov**